

GBD2576

“TASDIQLAYMAN”
Jamoatchilik kengashi raisi



A. Ishanxodjayev

2026-yil 31-iyul

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi
BAYONI

2026-yil 30-iyul

6-son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: A. Ishanxodjayev, Kengash raisi, O‘zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi

Ishtirok

etganlar:

Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

Taklif

etilganlar:

Raqamli texnologiyalar vazirligimarkaziy apparati departament, boshqarma va bo‘limlari vakillari.

Kengash raisi yig‘ilish kun tartibini muhokamaga qo‘ydi va Kengash a‘zolari tomonidan kun tartibi bir ovozdan qabul qilindi.

Kengashning 24 nafar a‘zosidan 19 nafari (kvorum) ishtirok etayotganligini inobatga olib, mazkur yig‘ilish vakolatli ega deb hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

- I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2026-yil 1-apreldagi PQ-120-son qarori ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida**
- II. Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 2026 yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**
- III. 2026 yilning yanvar-iyun oylari davomida Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan o‘tkazilgan sayyor qabullar to‘g‘risida**
- IV. Raqamli texnologiyalar vazirligida ma‘naviy-ma‘rifiy, davlat tiliida ish yuritish hamda xodimlarni sog‘lomlashtirish, ular va oila a‘zolarining mazmunli hordiq chiqarishlari yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida**

(A. Ishanxodjayev, A.Sultonov, R.Asqarov, K.Irisbekova, A.Fayzullayev, H.Ermatov, S.Murodov, R. Mamatqulov, N.Barnayev... A. Ishanxodjayev)

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2026-yil 1-apreldagi PQ-120-son qarori ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida

Ushbu masala yuzasidan vazir maslahatchisi N.Abdullayev hamda Vazirlikning Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi boshlig‘i L.Yadgarovlar so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2026-yil 1-apreldagi PQ-120-son qarorida belgilangan vazifalar Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda uning tizimidagi korxona va tashkilotlarda lozim darajada bajarilmayotganligini inobatga olib, Prezident qarori ijrosini ta‘minlashda mas‘uliyatni yanada oshirish, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yillik bayramiga munosib tayyorgarlik ko‘rilishini hamda nishonlanishini ta‘minlash maqsadida Vazirlikning 2026-yil 10-iyuldagi 100-son buyrug‘i qabul qilinganligini, ushbu buyruq bilan O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yillik bayrami munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan Raqamli texnologiyalar vazirligining tashkiliy-amaliy, ma‘naviy-ma‘rifiy hamda targ‘ibot-tashviqot chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligini ma‘lum qilishdi.

Mazkur buyruq hamda chora-tadbirlar dasturi doirasida quyidagi ishlar amalga oshirillmoqda:

1. “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida Vazirlik hamda tizimdagi korxona va tashkilotlar tomonidan soha faxriylari, biriktirilgan kam ta‘minlangan oilalar, ijtimoiy ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olinib, ularga ham moddiy hamda ma‘naviy ko‘maklar ko‘rsatilmoqda.

2. Vazirlik rahbariyatiga biriktirilgan uyushmagan yoshlar o‘rtasida mustaqillik davrida erishilgan yutuqlar, ularning tarixiy ahamiyati tushuntirish ishlari olib borilib, ularning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun amaliy yordamlar berilmoqda.

3. Soha faxriylari, hozirda faoliyat yuritayotgan rahbar-xodimlari hamda yoshlar ishtirokida “Uch avlod” uchrashuvlari o‘tkazilib, sohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bo‘yicha ma‘lumotlar berilib, yoshlar bilan jonli muloqotlar o‘tkazilmoqda.

4. Vazirlik hamda tizim tashkilotlarda targ‘ibot jarayonida foydalanish uchun banner hamda logotiplar ishlab chiqilib, tarqatildi.

5. Vazirlik hamda uning tizimidagi barcha korxona va tashkilotlarning rasmiy -veb saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda kanallariga bannerlar, logotiplar joylashtirildi.

6. Toshkent shahridagi 14 ta katta chorraha, shuningdek, viloyat/tumanlar markazlaridagi monitorlarga hokimliklar bilan kelishilgan holda Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan videoroliklar joylashtirildi.

7. Toshkent shahridagi aeroport, ayrim bozorlar, avtobus, metropoezdlaridagi monitorlarga ham videoroliklar taqdim qilinib, namoyishi tashkil etildi.

8. Vazirlik hamda tizimdagi korxona va tashkilotlarning binolari ichi, ulardagi xodimlar uchun ajratilgan kompyuterlar monitorlariga banner va logotiplar joylashtirildi.

9. Vazirlik tomonidan tashkil etilayotgan barcha tadbirlar jarayonida sanaga bag'ishlangan bannerlar o'rnatilishi yo'lga qo'yildi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Nurafshondagi "CYBER Unversity"ga tashrifida binoga banner o'rnatildi, namoyish qilingan roliklarga logotiplar joylashtirildi).

10. IT-Park majmuasiga sanaga bag'ishlangan kichik hajmli bannerlar (shtender) joylashtirildi.

11. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi "O'zbektelekom" AK, "Ucell", "Beeline", "Mobi.uz" kompaniyalarining sotuv ofislaridagi monitorlarga ham banner va logotiplar o'rnatildi.

12. Vazirlik va tizim tashkilotlar tomonidan tarqatilayotgan, ya'ni binolar hamda tadbirlarning ochilishiga bag'ishlangan yangiliklarda #Mustaqillik35, #Uzb35 xeshteglaridan foydalanilmoqda.

13. Tizim tashkilotlar tomonidan yuritiladigan umumfoydalanishdagi my.gov.uz, one.id, edo.ijro.uz axborot tizimlariga bannerlar joylashtirildi.

So'zga chiquvchilar, IT-Park majmuasi binolaridagi monitorlar hamda "Toshkent" teleminorasiga joylashtirish uchun videofayllar tayyorlab qo'yilganligini, ob-havo o'ta issiqligi va elektr energiyasini tejash maqsadida hozirda ular yoqilmayotganligini, ob-havo me'yoriga kelishi bilan yoqilishini va namoyishi ta'minlanishini, shuningdek, avgust oyi davomida hamda sanaga yaqin kunlarda targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish bo'yicha ko'rsatma berilganligini, bu haqida muntazam ravishda Respublika Ma'naviyat va targ'ibot markaziga ma'lumotlar taqdim etib kelinayotganligini qo'shimcha qilishdi.

II. Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 2026 yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o'rinbosari A.Sultonov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi:

Toshkent shahrida startup ekotizimi va investitsiya hamkorligini rivojlantirishga bag'ishlangan beshinchi Markaziy Yevrosiyo venchur forumi o'tkazildi. Sohada amalga oshirilgan o'zgarishlar va AT-biznes uchun yaxlit ekotizim shakllantirilgani va "Safety Perceptions Index" hisobotida eng xavfsiz joy sifatida e'tirof etilganligi sabab, O'zbekiston ko'p texnologik va outsorsing xizmatlari uchun jozibador mamlakatga aylandi.

2026-yil yanvr-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan IT-park rezidentlari soni 925 taga ko'payib, 3 848 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi rezidentlar soni esa 319 taga oshib, 1 095 taga yetdi. AT eksportni oshirish maqsadida AQSh, Germaniya, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreyada va Xitoyda IT-Parkning vakolatxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi. IT-parkning eksporter rezidentlari soni yarim yillikda 300 taga oshib, 1 050 tani tashkil etdi. AT va masofaviy xizmatlar eksporti geografiyasi ham kengaytirilib, 90 dan ortiq davlatlarga xizmatlar ko'rsatilmoqda.

O'zbekiston GameDev kompaniyalari soni 64 taga yetdi, ulardagi mutaxassislar soni 750 nafardan oshdi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (Yagona portal)da 83 ta yangi elektron xizmatlar joriy etilib, ularning umumiy soni 883 taga yetdi. Ilk bor Yagona portalda 32 ta xizmat sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda fuqarolarga ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 16 milliondan ortgan. 2026-yilda Yagona portal orqali taqdim etilgan xizmatlar soni 47 mln.dan oshdi. Shundan pullik davlat xizmatlari 86 foizi Yagona portal orqali onlayn shaklda va 14 foizi Davlat xizmatlari markazlariga borib, oflayn shaklda foydalanilgan (2025 yilda bu ko'rsatkich 74,2 foiz onlayn va 25,8 foiz oflayn bo'lgan).

2026-yil yanvr-iyun oylarida yagona portalning mobil ilovasida 52 ta yangi elektron xizmatlar joriy etilib, ularning umumiy soni 652 taga yetdi hamda ilova orqali pasport, haydovchilik guvohnomasi, diplom kabi muhim 30 turdagi hujjatlarning raqamli shakli amaliyotga tatbiq etildi. Yagona portal mobil ilovasidan foydalanuvchilari soni 15 mln. nafardan oshdi (2025-yil yakuni bo'yicha 9 mln. nafar).

Elektron xizmatlarni ko'rsatish nuqtalarini kengaytirish maqsadida 30 ta tijorat banklari, onlayn to'lov tizimlari va mobil operatorlarning mobil ilovalarida 50 ga yaqin xizmatlarni ko'rsatish imkoniyati yaratilib, ushbu xizmatlardan jami 2,2 mln.dan ortiq marotaba foydalanildi. Yagona portal mobil ilovasidan foydalanish ulushi 60 foizni tashkil etdi (2025-yilda bu ko'rsatkich 40 foiz bo'lgan). Qolgan 33 foizi Yagona portal va 7 foizi Davlat xizmatlari markazlariga to'g'ri kelgan (2025 yilda bu ko'rsatkichlar 43 foizi Yagona portal va 17 foizi Davlat xizmatlari markazlariga to'g'ri kelgan). Yagona portal mobil ilovasi yilning eng ommabop ilovalar TOP-5 taligiga kirdi. Mahalliy ilovalar ichida esa 1-o'rinni egalladi.

.uz milliy domenlar nomlari soni 150 mingdan oshdi.

O'zbekistonda "Space Technology Conference STC-2026" kosmik texnologiyalari xalqaro konferensiyasi o'tkazildi. STC 2026 Toshkentda 400 dan ortiq delegat, 24 ta homiy va 32 ta davlatdan ishtirokchilar qatnashdi.

Mamlakatimizda sun'iy intellekt yo'nalishidagi startap loyihalarni rag'batlantirish maqsadida ilk milliy tanlov – "President AI Award" yo'lga qo'yilib, joriy yilning 1 iyul kuni tanlovning rasmiy taqdimoti bo'lib o'tdi. Tanlovning sovrin jamg'armasi 1 mln AQSh dollarini tashkil etadi.

AQSh bilan kosmik texnologiyalar, sun'iy intellekt, raqamli infratuzilma va qo'shma investitsiya loyihalari yo'nalishlarida hamkorlik amalga oshirilmoqda.

"Oxford Insights" xalqaro tashkiloti tomonidan e'lon qilingan "Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksi" (*Government AI Readiness Index*) reytingida O'zbekiston dunyo bo'yicha 195 ta davlat orasida 54,7 ball bilan o'tgan yil (70-o'rin)ga nisbatan 8 pog'ona ko'tarilib, 62-o'rinni egalladi.

Sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektga asoslangan 1 mln dollari miqdoridagi yuqori samarali, zamonaviy server qurilmalarini (GPU klaster) xarid qilinib, INHA va TUIT universitetlarida ilk bor sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan maxsus laboratoriya faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, Andijon davlat universiteti, Termiz davlat universiteti va Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida sun'iy intellekt laboratoriyalari uchun jihozlar xaridiga doir shartnoma tuzilib, tashkiliy-texnik ishlar davom etmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalar asosidagi mashinaviy o'rgatish va boshqa loyihalar uchun zarur bo'lgan grafik ishlov berish bloklarini (GPU) o'z ichiga olgan yuqori samarali hisoblash klasteri hamda ma'lumotlarni to'plash, saqlash va shakllantirish uchun ixtisoslashtirilgan "katta ma'lumotlar" bazasi server qurilmalarini xarid qilish bo'yicha tender savdolari yakunlanib, jami 20 mln dollardan ortiq qiymatga ega shartnomalar imzolani, 2 ta loyiha (Grafik ishlov berish bloklari GPU hamda Katta malumotlar bazasi klasterlari) ishga tushurildi.

Sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi, energetika, transport, ekologiya va moliya sohalarida 86 ta sun'iy intellekt loyihalarini amalga oshirish boshlandi;

Biometrik identifikatsiyalash uchun sun'iy intellektni qo'llash "My ID" tizimi 31 ta bank (umumiy banklarning 88 foizi), 7 ta davlat tashkiloti, 29 ta to'lov tizimi, 15 ta marketpleys, 7 ta mobil operator, 40 dan ortiq boshqa sohadagi korxonalar, jami 200 dan ortiq tashkilotda o'rnatilib, 21 mln.dan ortiq foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazildi. Banklar, to'lov tizimlari va marketpleyslarda mijozlarni identifikatsiya qilishda raqamli firibgarlarni qisqartirish uchun "My ID" yuzni identifikatsiya qilish tizimi keng qo'llanilmoqda.

Vazirlik tomonidan yanvar–iyun oylarida jami 8 mingdan ziyod nafar davlat xizmatchisining sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha malakasi oshirildi.

Soliq tizimida "Davron", huquqiy sohada "Odil" va davlat xizmatlari portalida "Muxlisa" virtual yordamchilari ishga tushirildi. "Muxlisa" asosida ishlab chiqilgan "Stenograf" mahsuloti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligida qo'llanilmoqda.

Xalqaro internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 2025-yilda, 200 Gbit/s.ga oshirilib, 4 400 Gbit/s.ga yetkazildi. 2026-yilda esa yana 100 Gbit/s ga oshirgan holda jami 4 500 Gbit/s.ga yetkazish rejalashtirilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida hozirgi kunda jami internet foydalanuvchilar (mobil va simli internet) soni 37 mln.dan oshishiga erishildi.

"Speedtest Global index" reytingida simli internet tezligi 94.14-Mbit/s, mobil internet tezligi esa 62.87-Mbit/s ga ko'tarildi.

Pochta xizmatlaridan foydalanuvchi mijozning aniq manzili va joylashuvini aniqliligini ta'minlash maqsadida Yandeks kartografik platformasi bilan "Pochta logistikasi" tizimiga integratsiya qilindi. "O'zbekiston pochta" AJning barcha xizmat ko'rsatish jarayonlari raqamlashtirildi, to'lovlar va xizmatlar uchun QR-kodli cheklar berilishi joriy etildi, pochta aloqasi obyektlarida qog'oz shaklidan foydalanish amaliyoti bekor qilindi.

Biznes hamkorlarning (multibrend "internet magazin") jo'natmalarini pochta aloqa obyektigacha olib borish va shu erning o'zida oluvchilarga topshirish (oluvchining manziliga yetkazib berilmaydi) xizmatlari yo'lga qo'yildi. Hozirda barcha pochta aloqasi obyektlarida "Uzum market", "Ozon" va boshqa elektron

tijorat sohasi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning jo'natmalarini topshirish punktlari tashkil etilib, 1 100,0 mingdan ortiq jo'natma yetkazib berildi.

Jo'natmalarni qabul qilish va topshirish bo'yicha "Bir qadam" xizmati yo'lga qo'yildi, natijada Toshkent shahrida qabul qilingan pochta jo'natmalar Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat markazlariga 1 kun ichida yetkazib berilishiga erishildi.

Pochta aloqasi xizmatlarini foydalanuvchilarga imkon qadar yaqinlashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek, pochta aloqasi bo'limlarida ko'rsatiladigan qator xizmat turlarini aloqa bo'limlaridan tashqarida real vaqt rejimida ko'rsatish bo'yicha "Mobil pochta" xizmati yo'lga qo'yildi. Mazkur xizmatni 1 000 nafar pochta xizmat ko'rsatish hududida (pochta aloqasi bo'limlaridan tashqarida) pochta xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Toshkent shahridagi xalqaro Amity universitetida yoshlarni kreativ salohiyatini namoyish etuvchi "International Ideathon-2026" tanlovi o'tkazildi.

O'zbekiston jamoasi dunyoning 23 davlatidan 391 jamoa qatnashgan Act In Space xalqaro kosmik xakatonida ilk bor ishtirok etib, 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

IT-o'quv markazlari soni 526 taga yetdi *hamda* ularda joriy yilda 8,9 mingta yoshlar zamonaviy kurslarga o'qitilib 3 462 tasi ish bilan ta'minlandi.

"Besh million dasturchi" loyihasi doirasida 5 ta yo'nalishda 690 ming nafar yoshlar ro'yxatdan o'tib, shundan, 456 ming nafari (*shundan, 51,2 foiz qizlar*) xalqaro sertifikatni qo'lga kiritdi.

Yoshlarni yanada kengroq jalb qilish maqsadida Coursera platformasidagi 3 000 ta kurs o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Shuningdek, omp.aistudy.uz platformasi orqali 1 500 000 dan ortiq yoshlar ta'lim oldi.

Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 21 ta tuman (shahar)larda "Muhammad al-Xorazmiy vorislari" loyihasi joriy etilgan shu kunga qadar Loyiha doirasida 5,9 ming nafar yoshlar xorijiy til va AT bo'yicha o'qitilmoqda. Shuningdek, iste'dodlar reytingida 135 davlat orasida 71-o'rinni egallab, Markaziy va Janubiy Osiyoda yetakchilik qilmoqda.

2026-yil may oyida o'tkazilgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi informatika olimpiadasida 37 ta davlatdan 1 000 nafardan ortiq o'quvchi ishtirok etdi. Musobaqada mamlakatimiz sharafini himoya qilgan ishtirokchilardan 1 nafari kumush, 2 nafari esa bronza medalini qo'lga kiritdi.

2026-yil 12-18-may kunlari o'tkazilgan Informatika bo'yicha Yevropa qizlar olimpiadasida 60 dan ortiq davlatdan 248 nafar ishtirokchi qatnashdi. Musobaqada mamlakatimiz sharafini himoya qilgan ishtirokchilardan 2 nafari kumush, 1 nafari esa bronza medalini qo'lga kiritdi.

"Kambag'allikdan farovonlik dasturi" loyihasi doirasida 36 ming. nafar yoshlarni itstudy.uz platformasida o'qitildi. Loyihaning ikkinchi bosqichida 5 ming kambag'al oila farzandlarini intensiv AT kurslarida o'qitildi.

"IT-iste'dod" loyihasida o'qish va sertifikatlash xarajatlari uchun kompensatsiya olgan yoshlar 168 nafarga yetdi. Buning uchun, davlat budjetidan

1,374 mlrd. so'm mablag' ajratilib, xarajatlar qoplab berildi. Natijada AT-sertifikatga ega bo'lgan yoshlarning 50 foizi ish bilan ta'minlandi, ularning o'rtacha oylik daromadi 7 mln. so'mni tashkil etmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari soni 145 taga yetkazildi. Ushbu OTMlarni 120 ming nafar talaba tamomladi.

"Mirzo Ulug'bek vorislari" loyihasi doirasida Data Science hamda kreativ iqtisodiyot yo'nalishlarida 860 nafardan ortiq yosh mutaxassislar tayyorlandi.

Shuningdek, "School 21" loyihasida 2000 nafardan ortiq talaba asosiy ta'lim jarayonida tahsil olmoqda va 100 nafar ishtirokchi turli kompaniyalarda amaliyotni o'tamoqda.

Joriy yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Jizzax, Namangan, Andijon, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridagi umumta'lim maktablarining 6 mingdan ortiq informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari uchun "InfoTeach-2026" forumi tashkil etildi.

Nukus shahrida sog'liqni saqlash bo'yicha Xakaton musobaqasi muvaffaqiyatli o'tkazilib, unda 19 dan ziyod yoshlarning startap g'oyalari tanlab olindi.

Toshkent viloyatining Bekobod tumanida startap ekotizimini rivojlantirish hamda innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash "Bekobod innovatsion yoshlar AT markazi" ochildi.

III. 2026 yilning yanvar-iyun oylari davomida Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar to'g'risida

Ushbu masala yuzasidan Raqamli texnologiyalar vazirligi Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi Murojaatlar bo'limi boshlig'i J.Pulatov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshiriqlari ijrosi doirasida Vazirlikning 2026-yil 20-yanvardagi 3-F/2-son farmoyishi bilan tasdiqlangan "Vazirlik rahbariyati tomonidan 2026-yil I yarim yilligida respublika hududlarida o'tkaziladigan jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish bo'yicha sayyor qabullar jadvali"ga asosan, 2026-yil I yarim yillikda **6 marotaba** sayyor qabul tashkil etildi:

Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida jami 80 nafardan ziyod jismoniy va yuridik shaxslar bilan vazir Sh.Shermatovning sayyor qabuli o'tkazildi. Mazkur qabulda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan murojaatlarning 11 tasidan 2 tasi joyida ijobiy hal etildi, 9 tasi "cabinetpm.gov.uz" tizimida nazoratga olinib, 6 tasi ijobiy hal etilgan, 3 tasi huquqiy tushuncha berish orqali hal qilindi.

Andijon viloyati Marhamat tumanida vazir maslahatchisi D.Rustamov tomonidan jami 170 nafardan ziyod jismoniy va yuridik shaxslar bilan sayyor qabul o'tkazildi. Mazkur qabulda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan murojaatlarning 13 tasidan 3 tasi joyida ijobiy hal etildi, 10 tasi "cabinetpm.gov.uz"

tizimida nazoratga olinib, 5 tasi ijobiy hal etilgan hamda qolgan 5 tasi huquqiy tushuncha berish orqali hal qilingan.

Toshkent viloyati Nurafshon shahrida jami 80 nafardan ziyod jismoniy va yuridik shaxslar bilan vazir o‘rinbosari R.Karimjonovning sayyor qabuli o‘tkazildi. Mazkur qabulda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan murojaatlarning 21 tasidan 6 tasi joyida ijobiy hal etildi, 15 tasi “cabinetpm.gov.uz” tizimida nazoratga olinib, ijobiy hal etilgan.

Buxoro viloyati Romitan tumanida jami 100 nafardan ziyod jismoniy va yuridik shaxslar bilan vazir o‘rinbosari J.Maxsudovning sayyor qabuli o‘tkazildi. Mazkur qabulda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan murojaatlarning 13 tasidan 5 tasi joyida ijobiy hal etildi, 8 tasi “cabinetpm.gov.uz” tizimida nazoratga olinib, 8 tasi ijobiy hal etilgan.

Surhondaryo viloyati Denov tumanida vazir maslahatchisi J.Egamberdiyev tomonidan jami 100 nafardan ziyod jismoniy va yuridik shaxslar bilan sayyor qabul o‘tkazildi. Mazkur qabulda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan murojaatlarning 13 tasi “cabinetpm.gov.uz” tizimida nazoratga olinib, 11 tasi ijobiy hal etilgan hamda qolgan 2 tasi huquqiy tushuncha berish orqali hal qilingan.

Toshkent shahti Mirzo Ulug‘bek timanida jami 100 nafardan ziyod jismoniy va yuridik shaxslar bilan vazirning birinchi o‘rinbosari A.Sultonovning sayyor qabuli o‘tkazildi. Mazkur qabulda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan murojaatlarning 7 tasi “cabinetpm.gov.uz” tizimida nazoratga olinib, 6 tasi ijobiy hal etilgan hamda qolgan 1 tasi huquqiy tushuncha berish orqali hal qilingan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va muddat buzilish holatlari mavjud emas.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari masalasiga eng ustuvor masalalardan biri sifatida yondashish, doimiy nazorat qilib borish, murojaat va shikoyatlardagi savollar va masalalar yechimiga jiddiy e‘tibor berish, jismoniy va yuridik shaxs vakillari bilan murojaat masalasi yuzasidan uchrashilganda aholiga aloqa va axborotlashtirish xizmati ko‘rsatadigan tashkilotlarning mas‘ul xodimlari va operatorlari tomonidan muomala madaniyatiga amal qilinishi, ularning murojaatlari yechimida mavjud kamchiliklarni imkon darajasida joyida hal etib borish doimiy nazoratda.

IV. Raqamli texnologiyalar vazirligida ma‘naviy-ma‘rifiy, davlat tiliida ish yuritish hamda xodimlarni sog‘lomlashtirish, ular va oila a‘zolarining mazmunli hordiq chiqarishlari yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida

Ushbu masala yuzasidan Vazir maslahatchisi N.Abdullayev, Vazirlik Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi M.Matyakubovlar quyidagi ma‘lumotlarni taqdim qildi:

1. Davlat tili masalalari bo‘yicha:

Vazirlikning boshqarma va bo‘limlar tomonidan tayyorlangan 650 dan ortiq buyruq, farmoyishlar, shuningdek, Vazirlik nomidan turli vazirlik va idoralarga

chiqariladigan murojaat xatlari davlat tili qoidalariga mosligi yuzasidan ko'rikdan o'tkazilib, tuzatishlar bilan kelishib berildi.

Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy filiallarida Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, shuningdek, tizimdagi korxona va tashkilotlarning 94 nafar xodimining "Davlat tilida ish yuritish asoslari" bo'yicha malaka oshirishi muvofiqlashtirib borildi.

Vazirlik tomonidan tayyorlangan 25 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi lingvistik ekspertizadan o'tkazilib, ularning davlat tili me'yorlariga mosligi ta'minlandi hamda o'rnatilgan tartibda xulosa taqdim qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamentining 2026-yil 10-martdagi 24/1-308-3-son topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlik, "O'zkomnazorat" inspeksiyasi, "O'zbekkosmos" agentligi va "O'zbektelekom" AKda ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha masalahatchi lavozimini joriy qilish bo'yicha ma'lumotlar taqdim qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil I yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida" 2026-yil 15-yanvardagi 3-son bayonining 8-ilovasi 30-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlik markaziy apparatining tegishli bo'linmalari, soha korxonalari va mutaxassislari tomonidan ko'rib chiqilib, ma'qullangan axborot texnologiyalari, raqamlashtirish sohasiga oid yangi so'z va atamalarning o'zbekona muqobillari yuzasidan takliflar iste'molga kiritish uchun Davlat tilini rivojlantirish departamentiga Vazirlikning 2026-yil 12-iyundagi 09-8/5218-son xati bilan taqdim qilindi.

2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda uning tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish bo'yicha 2026-yil uchun yillik taqvim rejasi ishlab chiqildi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan kelishildi hamda 2026-yil 22-yanvarda tasdiqlandi. Ushbu reja asosida tizim tashkilotlar chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilib, amalga oshirib kelinmoqda.

- Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan 2026-yil 2-mart kuni Raqamli texnologiyalar vazirligida, shuningdek, mart oyining birinchi o'n kunligida "O'zkomnazorat" inspeksiyasida, "O'zbekkosmos" agentligida, "O'zbektelekom" AK va "O'zbekiston pochta" AJda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o'rganish muvaffaqiyatli o'tkazildi.

1-aprel kuni Vazirlik markaziy apparatining tegishli boshqarma va bo'linmalari, "O'zbektelekom" AK hamda tizimdagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda "IT Park Uzbekistan" majmuasi hududida milliy qadriyat va an'analarni ulug'lovchi, ko'tarinki ruhdagi Navro'z sayli tashkil qilindi.

7-aprel kuni olimlar, ma'naviyat targ'ibotchilari, Vazirlik markaziy apparati, soha korxonalari vakillari, shuningdek, Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari ishtirokida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi bilan hamkorlikda tayyorlanib, nashr qilingan "Temurbek" tarixiy asarining teatrlashtirilgan taqdimoti o'tkazildi.

7-may kuni O'zbekiston Respublikasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi xodimlari kuni munosabati bilan Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda tizimdagi tashkilotlar xodimlarini taqdirlash marosimi tashkil qilindi. Shuningdek, tadbirning 100ga yaqin qatnashchilari uchun O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markaziga sayohat uyushtirildi.

26-iyun – Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni munosabati bilan topshiriq sifatida taqdim qilingan reja ijrosi doirasida Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning rasmiy veb-saytlariga “26-iyun - Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni” deb yozilgan bannerlar joylashtirildi. Shuningdek, telegramm kanallar va guruhlarda 26-iyun kuni giyohvandlikning salbiy oqibatlaridan ogohlantirishga qaratilgan ma'lumotlar, ijtimoiy roliklar taqdim qilindi, #STOPNARKO shiori ostida chellenjlar o'tkazildi. Bundan tashqari, turli tadbirlar tashkil qilindi, xodimlarning huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirish, giyohvandlikka qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish hamda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish maqsadida test sinovlari o'tkazildi. Barcha mobil aloqa operatorlari abonentlariga “26-iyun – Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni. Imkonning borida YO‘Q degin!” mazmunidagi sms-xabarlar yuborilishi ta'minlandi.

27-iyun kuni Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparatining 40 dan ortiq xodimlari uchun O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif tashkil qilindi.

Vazirlik Kasaba uyushma qo'mitasi bilan hamkorlikda badiiy film hamda konsert dasturlari uchun 350 ta chipta xarid qilindi hamda Vazirlik markaziy apparati xodimlariga bepul tarqatildi. Bundan tashqari, tizim tashkilotlar tomonidan jami 1000 dan ortiq ta chipta xarid qilindi hamda xodimlarga tarqatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining “2026-yilda “Moziyga sayohat” dasturi doirasida tashriflarni tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida” 2025-yil 3-dekabrda 70-son bayoni bilan ijrosi doirasida 2026-yilning yarim yilligi davomida Vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlarning 7300 dan ortiq xodimlari va oliy ta'lim muassasalarining talabalarining turli muzeylar va boshqa tarixiy maskanlarga tashriflari tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 15-maydagi PQ–87-son Farmoni ijrosi doirasida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida Raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tizimidagi korxona hamda tashkilotlarning jami 6000 dan ortiq xodim, oila a'zolari va talabalari uchun sayohatlar tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2026-yil 15-yanvardagi PQ–9-son qarori ijrosi doirasida Vazirlik va tizim tashkilotlarda “Kitob burchagi” tashkil etildi va Vazirlik xodimlari uchun mutolaa platformasida har oyda “Kitob o'qish soati” yo'lga qo'yildi.

Yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan Kengash o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Bildirilgan fikr-mulohazalar hamda takliflar asosida **Kengash qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

Vazir maslahatchisi N.Abdullayev hamda Vazirlikning Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi boshlig'i L.Yadgarovlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi PQ-120-son qarori ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida;

Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o'rinbosari A.Sultonovning Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 2026 yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi Murojaatlar bo'limi boshlig'i J.Pulatovning 2026-yilning yanvar-iyun oylarida Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullar to'g'risida;

Vazir maslahatchisi N.Abdullayev, Vazirlik Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi M.Matyakubovlarning Raqamli texnologiyalar vazirligida ma'naviy-ma'rifiy, davlat tiliida ish yuritish hamda xodimlarni sog'lomlashtirish, ular va oila a'zolarining mazmunli hordiq chiqarishlari yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida bergan axborotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazir maslahatchisi N.Abdullayev Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda tizim tashkilotlarida davlat tilida ish yuritish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish choralarini ko'rsin.

3. Vazirlik Kasaba uyushmasi qo'mitasi (M.Matyakubov)ga Vazirlik markaziy apparati xodimlarini sog'lomlashtirish, ular va oila a'zolarining mazmunli hordiq chiqarishlari yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlarni davom ettirish tavsiya etilsin.

4. Kengash ishchi organi (N.Abdullayev):

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosi ta'minlanishini tashkil qilsin;

Vazirlik axborot xizmati (Sh.Axmatov) bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi yig'ilishi o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotni Vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil qilish;

mazkur bayonni Jamoatchilik kengashi a'zolariga yetkazish choralarini ko'rsin.

Kengash kotibi



N. Abdullayev